



ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

4-son (5-jild)

2025

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ 4 (5) - 2025

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

TOSHKENT-2025

BOSH MUHARRIR:

Isanova Feruza Tulqinovna

TAHRIR HAY'ATI:

07.00.00- TARIX FANLARI:

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti.

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori, O'zbekiston Milliy Universiteti;

Xolikulov Axmadjon Boymahamatovich – tarix fanlari doktori, O'zbekiston Milliy Universiteti;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston Milliy Universiteti.

Saidov Sarvar Atabullo o'g'li – katta ilmiy xodim, Imam Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo'limi.

08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanova – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent moliya instituti; Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Azizov Sherzod O'ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Bojxona instituti;

Xojayev Azizzon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, Farg'ona politexnika instituti

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b, Toshkent moliya instituti;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari

nomzodi, dotsent, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti

09.00.00- FALSAFA FANLARI:

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Yaxshilikov Jo'raboy – falsafa fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

G'aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor, Samarqand davlat chet tillar instituti;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori, "Tashkent International University of Education" xalqaro universiteti;

Hoshimxonov Mo'min – falsafa fanlari doktori, dotsent, Jizzax pedagogika instituti;

O'roqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent, Andijon davlat tibbiyot instituti, Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasi mudiri;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, Buxoro davlat universiteti.

10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Ko'chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor, Samarqand davlat chet tillar instituti;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent, Samarqand davlat universiteti;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi.

12.00.00- YURIDIK FANLAR:

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b., Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Asadov Shavkat G'aybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD), O'zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi huzuridagi Sudyalar oliy maktabi;

Jo'rayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Normatov Bekzod Akrom o'g'li — yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi, Toshkent davlat yuridik universiteti;

13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti huzuridagi pedagogik kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmoq markazi;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor, Qarshi davlat universiteti;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori, Iqtisodiyot va pedagogika universiteti;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Samarqand davlat universiteti;

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Samarqanddavlatuniversiteti.

19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna- psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasи mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD), Samarkand viloyat IIB Tibbiyot bo'limi psixologik xizmat boshlig'i.

22.00.00- SOTSILOGIYA FANLARI:

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Po'latovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti; Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston xalqaro islam akademiyasi.

23.00.00- SIYOSIY FANLAR

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Bo'tayev Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

OAK Ro'yxati

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrdagi 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo'yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

"Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzARB muammolari" elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: "SCIENCEPROBLEMS TEAM"
mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi,
70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).

07.00.00 – TARIX FANLARI

<i>Maxmudov Mansurjon Abdug'opporovich</i> TARIXIY ASARLAR VA ULARNI O'RGANISH: MILLIY ZIYOLILAR TOMONIDAN OLIB BORILGAN TADQIQOTLAR	12-17
<i>Qurbanov Xurshid Raupovich</i> O'ZBEKISTONDAN JANUBIY URALGA SAFARBAR QILINGAN "MEHNAT ARMIYACHILARI" VA ULARNING TA'MINOTI	18-22
<i>Salayev Fazliddin Shamsiddin o'g'li</i> O'ZBEKISTONDA DEMOGRAFIYANING RIVOJLANISH TARIXI VA SHAKLLANISHI	23-28
<i>Abbasov Behzod Baxtiyorovich</i> FARG'ONA OBLASTIDA TASHKIL QILINGAN XO'JALIKLARDA IJTIMOIY MUAMMOLAR VA KO'CHIRILGAN AHOLINING YANGI SHAROITGA MOSLASHISHI (1946-1965).....	29-35
<i>Mirzaliyev Ulug'bek, Klichev Ulug'bek</i> O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MILLIY ARXIVLAR FAOLIYATINI TASHKIL ETISH BORASIDAGI ISHLAR VA ISLOHOTLAR	36-39
<i>Tursunova Gavhar Begmuradovna</i> ROSSIYA IMPERIYASINING SIRDARYO VILOYATIDA OLIB BORGAN MA'MURIY-SIYOSIY BOSHQARUV TIZIMI (XIX ASRNING IKKINCHI YARMI – XX ASR BOSHLARI)	40-50
<i>Vaxobov Doston Abdumannob o'g'li</i> IKKINCHI JAHON URUSHI YILLARIDA MAKTAB, TIBBIYOT VA SOG'LIQNI SAQLASH XODIMLARINING G'ALABAGA QO'SHGAN HISSASI	51-54
<i>Sodiqova Yulduzzon Maxamat qizi</i> O'ZBEKISTONDA MAKTAB TA'LIMINI ISLOH QILINISHI VA UNDAGI O'ZGARISHLAR (1991-2024 yy)	55-59
<i>Maxmudov Umrbek Baxtiyorovich</i> QUYI SIRDARYOBO'YI HUDUDLARIDA OLIB BORILGAN ARXEOLOGIK TADQIQOTLAR VA ULARNING NATIJALARI	60-64
<i>Yo'ldosheva Gulbahor Nuriddinovna</i> MUSTAQILLIK YILLARIDA O'RTA UMUMTA'LIM MAKTABLARINING AHVOLI VA MODDIY – TEXNIKA BAZASINING MUSTAHKAMLANISHI (QASHQADARYO VA SURXONDARYO VILOYATLARI MISOLIDA)	65-69
<i>Mardiyeva Guzel Karimovna</i> XOTIN-QIZLARNING 1950-1980-YILLARDA SAMARQAND VILOYATI ILM-FAN SOHASINI RIVOJLANTIRISHDAGI O'RNI	70-75
<i>Narziyev Rustambek Xaydarovich</i> HARAKATLAR STRATEGIYASIDA NOGIRONLIGI BOR YOSHLAR UCHUN YARATILGAN IMKONIYATLAR	76-80

<i>Abdullayev Ilhomjon Ikromjonovich</i>	
XIX ASR OXIRI – XX ASR BOSHLARIDA NAMANGAN SHAHRINING	
IJTIMOIY-IQTISODIY HAYOTI	81-87
<i>Sodiqova Maxbubaxon Raxmonaliyevna</i>	
O'ZBEKISTONNING MILLIY HUNARMANDCHILIGI RIVOJIDA	
IPAKCHILIKNING O'RNI	88-92
<i>G'ulomjon Jumanazarovich Axmedov</i>	
O'ZBEKISTON TARIXIDA KONCHILIK ISHI VA METALLURGIYA RIVOJLANISHI	93-99

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

<i>Abdullayev Zafarbek Safibullayevich</i>	
BARQARORLIK REYTINGI ORQALI FISKAL INTIZOM VA BIZNES MUHITINI	
RAG'BATLANTIRISHNING O'ZBEKISTON TAJRIBASI	100-116
<i>Юлдашева Надира Викторовна</i>	
«ГОСУДАРСТВЕННЫЕ ЗАКУПКИ ПОД КОНТРОЛЕМ:	
ИНСТИТУЦИОНАЛЬНЫЙ АНАЛИЗ УЗБЕКСКОЙ МОДЕЛИ МОНИТОРИНГА».....	117-123
<i>Maxsudov Sherzod Solijonovich</i>	
ERKIN IQTISODIY ZONALARDA INVESTITSIYA JOZIBADORLIGINI OSHIRISH	124-128
<i>Xaitov Oxunjon Nomoz o'g'li</i>	
TURISTIK VA REKREATSION KLASTERNING MUVAFFAQIYATLI	
FAOLIYAT YURITISH TAMOYILLARINI TIZIMLASHTIRISH	129-135
<i>Xadimova Aziza Abdufattoyevna</i>	
SAMARQAND VILOYATINING DEMOGRAFIK O'ZGARISHLARI	
VA IQTISODIY RIVOJLANISHI.....	136-145
<i>Tashpulatov Giyos Toxirovich</i>	
XORIJY BAHOLOVCHI TASHKILOTLAR REYTINGI VA RENKINGINI BAHOLASHDA	
KOMPLEKS YONDASHUVNING QO'LLANILISHI T AHLILI	
(ROSSIYADAGI BAHOLOVCHI TASHKILOTLAR MISOLIDA)	146-159
<i>Ulug'muradova Nodira Berdimuradovna</i>	
O'ZBEKISTONDA KICHIK BIZNESNI RIVOJLANTIRISHDA	
INSON KAPITALINING TA'SIRI	160-164
<i>Tursunxodjayeva Shirin Zafar qizi</i>	
“QUTIDA RO'YXATGA OLISH” (SHELF-REGISTRATION) AMALIYOTINI JORIY ETISH	165-169

09.00.00 – FALSAFA FANLARI

<i>Komilov Ro'zi Rabiyevich</i>	
OILA BARQARORLIGINI TA'MINLASHDA MODDIY VA MA'NAVIY	
OMILLARNING FALSAFIY T AHLILI	170-172
<i>Хакимов Эркин</i>	
ЗНАНИЕ ЛОГИКИ КАК УСЛОВИЕ ФОРМИРОВАНИЯ КУЛЬТУРЫ	
МЫШЛЕНИЯ В ИНФОРМАЦИОННОМ ОБЩЕСТВЕ	173-180
<i>Usmonova Laylo Raxmatullayevna</i>	
SHARQ FALSAFASIDA INSON MUAMMOSI	181-185
<i>Karimov Yo'lqosh Ergashevich</i>	
TARIXNI SOXTALASHTIRISHNING TARIXIY TAFAKKURGA TA'SIRI MASALALARI	186-191

<i>Агзамходжаева Шахноза Сайдматмабовна</i>	
О ЦЕЛИ И СОДЕРЖАНИИ ЧЕЛОВЕЧЕСКОЙ ЖИЗНИ, ДУХОВНОМ СОВЕРШЕНСТВЕ (ПО ПРОИЗВЕДЕНИЯМ АЛИШЕРА НАВАИ).....	192-195
<i>Rustamov Ramz Rizoqulovich</i>	
ZAMONAVIY IQTISODIY TARG'IBOT VA UNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	197-204
<i>Evatov Salimjon</i>	
MARKAZIY OSIYODA TASAVVUFİY TAFAKKUR RIVOJI: IX-XII ASRLAR MEROSI	205-209
<i>Turobov Yorqinjon Yoqub o'g'li</i>	
ISLOM TA'LIMOTIDA SIYOSAT VA HOKIMIYAT FALSAFASI	210-213
<i>Toshpulatov Odil Nodirovich</i>	
IJTIMOIY MUNOSABATLARDA AMORALIZM VA IMMORALIZMNI OLDINI OLISHDA MAVJUD ME'YORLARNING AHAMIYATI	214-217
<i>Kunisheva Nadira Julianovna</i>	
"IJTIMOIY BAG'RIKENGLIK" TUSHUNCHASINI TADQIQ ETISHNING ILMIY-NAZARIY MASALALARI	218-223
<i>Eshpulatov Inoyat</i>	
FAXRIDDIN ROZIY YASHAGAN DAVR: IJTIMOIY-SIYOSIY VAZIYAT VA MA'NAVIY MUHIT	224-231
10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI	
<i>Nuniyazova Shaxlo Ulugbekovna</i>	
O'ZBEK ONOMASTIKASIDA GIDRONIMLARNING LINGVOMADANIY SHAKLLANISHI	232-236
<i>Алиева Эльвина Аметовна</i>	
ЛЕКСИЧЕСКИЙ И ЛЕКСИКО-СИНТАКСИЧЕСКИЙ ПОВТОРЫ С РАСПРОСТРАНЕНИЕМ В ХУДОЖЕСТВЕННЫХ ОЧЕРКАХ М. ЦВЕТАЕВОЙ	237-243
<i>Usmanova Sevara</i>	
INGLIZ VA O'ZBEK TARIXIY ROMANLARIDA TARIXIY HAQIQAT VA BADIY TO'QIMA	244-251
<i>Ochilov Ulug'bek Sayfulloyevich</i>	
MAGIK REALIZMNING MADANIYAT VA ADABIYOTGA TA'SIRI.....	252-260
<i>Daminova Rahima Malikovna</i>	
ATOYI SHE'RIYATINING BADIY LATOFATI.....	261-266
<i>Yusupov Asror</i>	
PUBLITSISTIK MATNLARDA UCHROVCHI LINGVOKULTUROLOGIK BIRLIKAR TARJIMASIGA LEKSIKOGRAFIK YONDASHUV	267-271
<i>Ruziyeva Nasiba Kenjayevna</i>	
VLADIMIR GEORGEVICH GAKNING TARJIMA MASALALARIGA DOIR TADQIQOTLARI	272-276
<i>Batirkhanova Madina Oybekovna</i>	
COMPONENT ANALYSIS OF SOMATIC PHRASEOLOGISMS IN ENGLISH FICTION	277-281
<i>Sirojiddinova Shakhrribonu</i>	
THE FORMATION OF MYTHOLOGY AND THE INFLUENCING FACTORS	282-285

12.00.00 – YURIDIK FANLAR

<i>Xodjiev Yunus Muxitdinovich</i>	
DAVLAT XIZMATLARI VA FUQAROLIK-HUQUQIY XIZMATLAR TUSHUNCHASI HAMDA O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	286-292
<i>Wang Cong</i>	
RESEARCH ON LEGAL ISSUES OF PERSONAL INFORMATION PROTECTION	293-300
<i>Ли Адик</i>	
К ВОПРОСУ О ПОНЯТИИ И КЛАССИФИКАЦИИ ВИДОВ ФИНАНСИРОВАНИЯ ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ	301-310
<i>Abdurashidova Zarina Turg'un qizi</i>	
FUQAROSIZLIKKA QARSHI MUROSASIZLIK: HUQUQIY CHORALARING NAZARIY VA AMALIY JIHATLARI	311-315
<i>Axmatov Olimjon Odilovich</i>	
"KRIPTO-AKTIVLAR VA VALYUTA QIMMATLIKARINI QONUNGA XILOF RAVISHDA OLISH, O'TKAZISH VA AYIRBOSHLASH: IQTISODIY, HUQUQIY XAVF-XATARLAR VA ULARNING OLDINI OLISHDA SUN'IY INTELLEKTNING O'RNI"	316-322
<i>Xatamov To'lqin Tojiddinovich</i>	
KUCHLI TA'SIR QILUVCHI VA GIYOHVANDLIK VOSITALARINI YANGI TURLARINI NOQONUNIY MUOMALASI BILAN BOG'LIQ JINOYATLARNING NAZARIY-HUQUQIY TAHLILI	323-329
<i>Kuchimova Shaxlo</i>	
VORISLIK HUQUQIDA MEROS MAJBURIYATI	330-337
<i>O'ranova Dilshoda Adhamovna</i>	
OILAVIY ZO'RAVONLIK JINOYATINING KRIMINOLOGIK TAVSIFI HAMDA USHBU TURDAGI JINOYATLARDA AYOLLAR JABRLANISHINI OLDINI OLISH BO'YICHA FARG'ONA TAJRIBASI	338-347
<i>Geng Zhimin</i>	
RESEARCH ON THE INDEPENDENCE OF THE INTERNATIONAL CRIMINAL COURT.....	348-351
<i>Xidirov Mexroj Qilich o'g'li</i>	
ELEKTRON TO'LOV VOSITALARI ORQALI SODIR ETILADIGAN FIRIBGARLIK JINOYATLARINING SABABLARI, ULARNING SODIR ETILISHIGA IMKON BERUVCHI OMILLAR	352-357
<i>Тулаганов Элмурод</i>	
ВОПРОСЫ ПРОТИВODEЙСТВИЯ КОРРУПЦИИ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ	358-367
<i>Bozorboyev Farruh, Boboxonov Akromxon</i>	
DASTLABKI TERGOV BOSQICHIDA PROTSESSUAL HARAKATLARNI SODDALASHTIRISH: XOLIS INSTITUTI	368-374
<i>Abbosov Mirluton Mirsharof o'g'li</i>	
JINOYAT QONUNCHILIGIDA SUN'IY INTELLEKT TUSHUNCHASI VA UNING IJTIMOIY XAVFLILIGI	375-382

<i>Mamatov Islom Qosim o'g'li</i>	
DAVLAT XARIDLARI BILAN BOG'LIQ JINOYATLARNI FOSH ETISH USULLARI, AMALIYOTDAGI MUAMMOLAR VA TAKLIFLAR	383-392
<i>Kamilov Oybek</i>	
O'ZBEKISTONNING MIGRATSIIYA SOHASIDA MINTAQAVIY TASHKILOTLAR VA XORIJY DAVLATLAR BILAN HAMKORLIGINI RIVOJLANTIRISH MASALALARI	393-402
<i>Aбророва Камола Сайдмухторовна</i>	
ВЛИЯНИЕ МЕЖДУНАРОДНОГО КОММЕРЧЕСКОГО АРБИТРАЖА НА ИНВЕСТИЦИОННЫЙ КЛИМАТ УЗБЕКИСТАНА: ПРОБЛЕМЫ, РЕШЕНИЯ И ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ	403-410
<i>Ne'matova Muborak Odiljonovna</i>	
RAQAMLI FUQAROLIKNING MOHIYATI VA UNI SHAKLLANTIRISHGA OID DOLZARB MUAMMOLAR (O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MISOLIDA)	411-418
<i>Jabbarova Yulduz Ibrohim qizi</i>	
"HUQUQNI QO'LLASH AMALIYOTIGA SUN'iy INTELLEKTNI INTEGRATSIYA QILISHNING AXLOQIY VA HUQUQIY MASALALAR"	419-427
<i>Agzamova Qizlarxon Baxtiyorovna</i>	
INSOFLI EGALLOVCHINING HUQUQIY MAQOMIGA OID AYRIM MASALALAR	428-432
<i>Shomirzayev Saxodulla, Sherkulov Azamat</i>	
VALYUTA QIMMATLIKARINI BOJXONA CHEGARASIDAN OLIB O'TISH BILAN BOG'LIQ HUQUQBUZARLIKLARNI ANIQLASH VA JAVOBGARLIK ASOSLARI	433-441
<i>Jumanazarov Faxriddin Erkinovich</i>	
KONTRAFAKT MAHSULOTLAR KONTRABANDASI NATIJASIDA INTELLEKTUAL MULK HUQUQI BUZILISHINING NAZARIY-HUQUQIY JIHATLARI	442-448
<i>Ergashev Sharifjon Shuhrat o'g'li</i>	
YASHIRIN IQTISODIYOTNING JAMIYAT IJTIMOIY-IQTISODIY FAOLIYATIGA TA'SIRI VA UNGA QARSHI KURASHISHDA BOJXONA AUDITINING O'RNI	449-457
<i>Mansurov Arslon Askarovich</i>	
"IJTIMOIY DAVLAT" TAMOYILINING YANGI O'ZBEKISTON SHAROITIDAGI HUQUQIY MAQOMI VA XALQARO TAJRIBA BILAN TAQQOSLAMA TAHLILI	458-463
13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI	
<i>Abdullayev Yashnarjon Mahkamovich</i>	
"JISMONIY MADANIYAT NAZARIYASI VA METODIKASI" FANIDAN NAZARIY MASHG'ULOTLARNI O'TKAZISH METODIKASI	464-470
<i>Yusubjanova Musharraf Tursunali qizi</i>	
EHTIMOLLAR NAZARIYASI VA MATEMATIK STATISTIKANI UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA O'QITISH: XORIJY TAJRIBA VA ILMIY YONDASHUVLAR	471-475
<i>Fayzullayeva Gulchexra, Kurbonova Gulmira</i>	
BO'LAJAK O'QITUVCHILARDA KOLLABORATIV O'QUV MUHITINI LOYIHALASH KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH: INNOVATSION YONDASHUVLAR VA ISTIQBOLLAR	476-481

<i>Yaqubov Fazliddin Muxitdinovich</i>	
ILMIY-TADQIQOTCHILIK KOMPETENTLIGINING MAZMUNI VA TARKIBIY TUZILISHI.....	482-485
<i>Mirsanova Moxira Xusniddin qizi</i>	
FANTASTIK IFODA SHAKLLARI VA UNING BADIYATI	486-491
<i>Tursinova Zoxida Sharabidinovna</i>	
TA'LIM SIFATINI OSHIRISHDA MAKTAB O'QITUVCHILARNING PEDAGOGIK MAHORATINI BAHOLASH MEXANIZMLARINING TAKOMILLASHUVIDA TA'LIM MENEJMENTINING O'RNI	492-496
<i>Раббимова Нодира Таштемировна</i>	
ТЕХНОЛОГИЯ РАЗВИТИЯ КРИТИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ ПРИ ПРЕПОДАВАНИИ ИНФЕКЦИОННЫХ БОЛЕЗНЕЙ В ВУЗЕ	497-501

Received: 16 March 2025

Accepted: 5 April 2025

Published: 15 April 2025

Article / Original Paper

SOCIAL ISSUES IN THE ESTABLISHED FARMS OF FERGANA REGION AND THE ADAPTATION OF RELOCATED POPULATION TO NEW CONDITIONS (1946-1965)

Abbasov Behzod Bakhtiyorovich

Associate Professor of Social Sciences of Namangan State University, PhD

Abstract. This article analyzes social issues in the farms established in the Fergana region and the adaptation process of relocated populations to new conditions. The study examines changes in the farming system, factors affecting the standard of living, infrastructure development in new settlements, and social adaptation mechanisms. Additionally, economic and psychological challenges arising from migration, as well as the integration process with the local community, are analyzed. Based on the research findings, recommendations and proposals for addressing these issues are developed.

Keywords: kolkhoz, food loan, sovkhoz, oblast, centner, rayon, outpatient clinic, respondent, "Uzpereselenstroy" trust, "Oblstroytrest".

FARG'ONA OBLASTIDA TASHKIL QILINGAN XO'JALIKLarda ijTIMOIY MUAMMOLAR VA KO'CHIRILGAN AHOLINING YANGI SHAROITGA MOSLASHISHI (1946-1965)

Abbasov Behzod Baxtiyorovich

Namangan davlat universiteti Ijtimoiy fanlar kafedrasи dotsenti, PhD

E-mail: hitman_7707@mail.ru

Annotatsiya. Ushbu maqolada Farg'ona viloyatida tashkil qilingan xo'jaliklarda ijtimoiy muammolar va ko'chirilgan aholining yangi sharoitga moslashish jarayoni tahlil qilinadi. Tadqiqot doirasida xo'jalik yuritish tizimidagi o'zgarishlar, aholi turmush darajasiga ta'sir etuvchi omillar, yangi yashash joylarida infratuzilma rivojlanishi va ijtimoiy moslashuv mexanizmlari ko'rib chiqiladi. Shuningdek, migratsiya natijasida yuzaga keladigan iqtisodiy va psixologik muammolar, mahalliy jamiyat bilan integratsiya jarayoni ham tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari asosida muammolarni bartaraf etish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Kalit so'zlar: kolxoz, oziq-ovqat ssudasi, sovxoZ, oblast, sentner, rayon, ambulatoriya, respondent, "Узпереселенстрой" tresti, "Облстройтрест".

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5I4Y2025N04>

Kirish. Ko'chirib keltirilgan xo'jaliklarni ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan ta'minlash, ularni oyoqqa turib ketishi uchun imkoniyat yaratish respublika hukumati oldida turgan muhim vazifalardan biri bo'lib, bu yo'nalishda bir qancha ishlar qilingan. Lekin, 1953-yilda O'zbekiston SSR bo'yicha ko'chirilgan kolxozchilarni xo'jaliklarga joylashtirish masalasida katta qiyinchiliklar mavjud bo'lib, ushbu sohadagi vazifalar ham bajarilmay qoldi. Masalan, ko'chirib keltirilgan 2183 ta oiladan faqatgina 900 ta xo'jalik yoki 31,1 %i sigir va buzoq bilan ta'minlangan edi[1; 194].

Farg'ona oblasti bo'yicha ko'chirilgan aholining yangi o'zlashtirilgan yerdarda ijtimoiy muammolarni yechish yoki odamlarning yangi turar-joylaridagi turmush sharoitini yaxshilab

berish ko'chirish siyosatini amalga oshirishdagi muhim vazifalardan biri edi. Ushbu masalada birinchi o'rinda ko'chib kelgan aholi uchun uy-joy qurilish muammosini hal qilish muhim ahamiyat kasb etgan. Mazkur jarayonni oblastdagi iqtisodiy-ijtimoiy jarayonlarning borishi misolida ham ko'rish mumkin.

Oblastda yangi tashkil qilingan xo'jaliklarning ijtimoiy masalalarining holatini tahlil qilib va avvalgi yillar bilan solishtirilganda, 1957-yilda 491 ta ko'chirilgan barcha oilalar uy-joy bilan ta'minlangan va ko'chirilgan aholi uchun quyidagi imtiyozlar taqdim etilgan: 1180 ta oilaga bir martalik yordam puli berilgan, 491 ta xo'jalik esa tomorqa yerlari va sigir bilan ta'minlangan (shundan 348 ta oila xo'jalikka berilgan kredit hisobidan, 143 ta oila esa shaxsan xo'jalik hisobidan). Shuningdek, ushbu ko'chirilgan aholini oziq-ovqat yordami (ssudasi) bilan ta'minlash maqsadida 140 tonna bug'doy ham ajratilgan[2; 268-270].

Albatta, ko'chirish tadbirlarini amalga oshirish va ko'chirilgan oilalarga bu kabi ijtimoiy-iqtisodiy yordamni berishda davlat tomonidan ajratiladigan kredit katta rol o'ynagan. Masalan, 1957-yilda butun Farg'ona oblasti bo'yicha ushbu tadbirlarni amalga oshirish maqsadida 5 mln. 500 ming rubl kredit berilishi kerak edi, lekin amalda faqat 3 mln. 110 ming rubl pul berildi. Jumladan yangi ko'chib kelgan oilalar uchun mo'ljallangan uy-joy qurilishiga 2 mln. 614 ming rubl, ularni sigir bilan ta'minlash uchun esa 495 900 rubl kredit ajratilgan. Eng ko'p kredit mablag'i Bag'dod (1 mln. 200 ming rubl), Buvayda (1 mln. 050 ming rubl), Toshloq (1 mln. 120 ming rubl), Quva (1 mln. 090 ming rubl) rayonlariga ajratilgan, chunki ushbu rayonlarga ko'chirilgan aholining soni nisbatan ko'p bo'lgan[3; 268-270].

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Shuningdek, oblast aholisini ko'chirish ishlari va ko'chirilgan aholining boshqa tashkiliy hamda ijtimoiy muammolarini hal qilish uchun ham katta miqdorda pul mablag'lari ajratilgan. Masalan, pochta-telegraf, telefon, tipografiya va nashr ishlariga 8000 rubl, tibbiy xizmat uchun 4,2 ming, ko'chirishning madaniy tadbirlari uchun 4,2 ming rubl, oilalarni jo'natish va kutib olish uchun 126 ming rubl, ko'chiriladigan aholini tanlash uchun 21 ming rubl va bir martalik to'lov puli uchun esa 1 mln 102 ming (amalda bu ko'rsatkich 71,5 %ga bajarilib, atigi 788500 rubl ajratilgan) pul mablag'i ajratilgan[4; 269].

Respublika va oblast rahbariyatlari tomonidan ko'chirilgan aholini qabul qilib olgan kolxozlar iqtisodiy jihatdan har tomonlama qo'llab-quvvatlangan, ya'ni ularga davlat buyurtmalaridagi rejalar masalasida imtiyozlar berilgan. Masalan, ushbu xo'jaliklar uchun ayrim qishloq xo'jalik mahsulotlarini davlatga topshirish rejasi, shu jumladan, go'sht topshirish 13732 kilogramm, jun topshirish 2506 kilogramm, sut topshirish esa 6370 litrga kamaytirilgan[5; 271].

Farg'ona oblastida yangi yerlarda tashkil qilingan xo'jaliklarning eng katta muammolaridan biri – ko'chib kelgan dehqonlarning faqat 65 foizi uy-joy bilan ta'minlangan. Qolgan odamlar esa vaqtinchalik turar-joylarda istiqomat qilishgan[6; 28].

Ko'chirilganlarni uy-joy bilan ta'minlash muammosini Kuybishev rayonining "Stalin" va Yozyovon rayonining "Stalinobod" kolxozlari misolida tahlil qilinsa, quyidagicha holat namoyon bo'ladi: Mazkur kolxozlarda 1954-yilda 50 ta va 60 ta uy-joy qurilishi rejallashtirilgan edi. Lekin, qurilish materiallari va quruvchilarning yetishmasligi kabi turli sabablar natijasida yangi tashkil qilingan kolxozlardagi uy-joy qurilish plani bajarilmay qoldi. Masalan, uy-joy qurilishiga hammasi bo'lib 829 nafar quruvchi jalb qilinishi kerak bo'lgan, amalda esa atigi 335 nafar ishchi ishlagan xolos [7; 257]. Oblastda ko'chib kelgan oilalarni uy-joy bilan

ta'minlash muammosi yangi tashkil qilingan ayrim xo'jaliklarda keyingi yillarda ham to'liq yechimini topmagan.

Farg'ona oblastida ko'chib kelgan oilalarni uy-joy bilan ta'minlash muammosi ayrim yangi tashkil qilgan xo'jaliklarda keyingi yillarda ham to'liq yechilmagan. Masalan, buni 1957-yil misolida pudrat usuli (boshqa tashkilotlar tomonidan bajariladigan qurilish) bilan qurilgan uylar misolida qarab chiqadigan bo'lsak, Bag'dod rayonidagi "Lenin" kolxozida ushbu yilda 40 ta uy qurilishi kerak edi, lekin amalda 38 ta uy qurib bitkazilgan. Buvayda rayonidagi "Yangiqadam" va "Yangihayot" kolxozlarining har birida ko'chirilgan aholiga 25 tadan uy qurilishi rejalashtirilgan, lekin amalda faqat 19 ta va 14 tadan uylar qurib topshirilgan. Xuddi shunday holatni Quva rayonidagi "Guliston" kolxozi misolida ham ko'rish mumkin: rejadagi 55 ta o'rniga 44 ta uy qurilgan. Lekin, shu bilan birga, ayrim xo'jaliklarda ko'chib kelgan aholi uchun uy-joy muammosi to'liq hal qilingan. Masalan, Kuybishev rayoni "Mehnatobod" kolxozida rejadagi 50 ta o'rniga 86 ta uy qurib topshirilgan[8; 257].

Umuman olganda, mazkur yilda Farg'ona oblasti bo'yicha ko'chib kelgan aholini uy-joy bilan ta'minlash avvalgi yillarga nisbatan ancha yaxshi edi. Buni pudrat usuli bilan qurilgan uylar misolida ko'rish mumkin: rejadagi 250 ta o'rniga hammasi bo'lib 291 ta uy-joy qurib topshirilgan, shu bilan birga avvalgi yil rejasiga kirgan, lekin qurib bitkazilmagan yana 63 ta uy topshirilish arafasida bo'lgan[9; 259].

Shuningdek, ko'chib kelgan aholini uy-joy bilan ta'minlash xo'jalik usuli bilan, ya'ni kolxozlar tomonidan, ularning o'z kuchi bilan ham amalga oshirilgan. Aynan bu shakldagi qurilish ishlarining juda orqada qolib ketganligini quyidagi faktlarda ko'rish mumkin: 1957-yilda Farg'ona oblasti bo'yicha rejada 200 ta uy qurilish kerak edi, lekin amalda atigi 43 ta uy egalariga topshirilgan. Ayniqsa Oltiariq rayonidagi ahvol achinarli edi, 45 ta uy o'rniga faqatgina 3 ta uy qurilgan, xolos[10; 257-258].

Muhokama. Ta'kidlash joizki, Farg'ona oblastida ko'chirilgan aholi orasida agar 1956-yilda Quva rayonidagi "Guliston" va Kuybishev rayonidagi "Mehnatobod" kolxozlariga ko'chirilgan aholi orasidan may-iyun oyida 22 ta xo'jalik ketib qolgan bo'lsa (ulardan 18 tasi keyin yana qaytib kelgan), 1957-yilda ko'chirilgan 491 ta xo'jalik orasida ketib qolganlar bo'limgan[11; 193].

Ko'chib kelgan 270 ta xo'jaliklardan faqat 84 ta xo'jalik shaxsiy chorva mollari bilan ta'minlangan. Bunday salbiy ko'rsatkich asosan, Oltiariq rayoniga xos edi, chunki ko'chirilgan xo'jaliklarga Selxozbank tomonidan ularning chorva mollarini sotib olishlari uchun kredit berilmagan va buning sababi sifatida ushbu xo'jaliklar bir rayon hududida ko'chirilgan aholi toifasiga kiritilgani, — deb ko'rsatilgan[12; 26].

Shuningdek, ko'chib kelgan aholini moddiy va moliyaviy jihatdan ta'minlash ishlarida ham ko'chirish siyosatining muhim jihatlaridan biri edi. Oltiariq rayonining "Beshinchchi besh yillik" nomli xo'jaligining 25 ta kolxozchilariga berilgan kredit miqdori 5000 rublini tashkil qilgan, ya'ni har bir oilaga 200 rubldan kredit berilgan. Vodil rayonidagi "Hakimzoda" kolxoziga esa 24800 rubl pul krediti ajratilgan edi, shundan 16 ta xo'jalikka 500 rubldan berilgan, ya'ni hammasi bo'lib 8000 rubl kredit berilgan[13; 28].

Umuman olganda, ko'chirish tadbirlari uchun 1953 yildagi kredit limiti 3 mln. 430 ming rubl bo'lgan, shundan 1954-yilning 1 yanvarigacha 3 mln. 406 ming rubl ishlatilgan. Jumladan, uy-joy qurilishi ishlariga 3 mln. 366 ming rubl, chorva mollarini sotib olishga esa 40 ming rubl yo'naltirilgan[14; 30]. Ushbu ko'rsatkich rayonlar kesimida quyidagini tashkil etgan:

Oltiariq rayoniga jami 1 mln. 780 ming rubl kredit berilgan va uning barchasi uy-joy qurish hamda ta'mirlashga yo'naltirilgan. Vodil rayoniga jami 650 ming rubl ajratilib, ushbu mablag' ham uy-joy qurilishi va uni ta'mirlashga ishlataligan. Yozyovon rayoniga esa, jami 1 mln. rubl ajratilgan bo'lib, uning 976 ming rubli ishlataligan. Jumladan, uy-joy qurilishi va uni ta'mirlashga 936 ming rubl, chorva mollarini sotib olishga esa 40 ming rubl ishlataligan[15; 36].

Ko'chirilgan barcha xo'jaliklarga tomorqa yerkari berilgan edi, ammo Yozyovon rayonining "Stalinobod" kolxozidagi tomorqa yerlarining sho'rlangani sababli sholi hosili nobud bo'lgan. Shu sababli 20 ta oila o'zlarining avvalgi kolxozlariga ko'chib ketishga majbur bo'lgan. Shuningdek, Oltiariq rayonining "Beshinchi besh yillik" kolxozidan ham turli sabablarga ko'ra 9 ta oila ketib qolgan. Albatta, sovet tashkilotlari tomonidan ularni joylariga qaytarish tadbirlari ham ko'rildi, natijada ayrim oilalar yangi tashkil qilingan kolxozlarga qaytib ko'chib kelgan.

Umuman olganda, Farg'ona oblastida ko'chirilgan oilalarning yana o'z kolxozlariga ketib qolishi 1950 yillarning boshlarida ommaviy tus olgan edi. Ushbu holat Yozyovon va Oltiariq rayonlarida kuzatilgan va u quyidagi faktlarda o'z ko'rinishini olgan: birinchi rayondan qaytib ketganlar ko'chirib kelingan xo'jaliklarning 32 %ini, ikkinchi rayonda esa ushbu ko'rsatkich 31,4 %ini tashkil qilgan. Buning asosiy sabablaridan biri ko'chib kelgan xo'jaliklarning uy-joy bilan ta'minlanmagani edi. Faqat 1950–1952 yillarda 165 ta ko'chib kelgan oila uy-joy bilan ta'minlanmagan. 1953 yilda esa rejadagi 100 ta o'rniga faqatgina 65 ta uy-joy qurilgan, xolos[16; 53].

Ko'chib kelgan aholining uy-joy bilan ta'minlanmaganligi, yashash va mehnat qilish uchun boshqa muhim ijtimoiy sharoitlarning yaratilmaganligi natijasida aholining bir qismi ma'lum bir vaqt yomon sharoitlarda yashashga majbur bo'lgan yoki yana o'zlarining avvalgi xo'jaliklariga qaytib ketgan.

Shuningdek, ko'chirilgan muhtoj oilalarga oziq-ovqat ssudalari ham berilgan. Masalan, Oltiariq rayonining "Beshinchi besh yillik" kolxozidagi har bir oila uchun 15 kg dan to 25 kg gacha bug'doy berilgan, hammasi bo'lib bu yordam turi 434 kg bug'doyni tashkil qilgan[17; 28]. Lekin, Vodil rayonining "Hakimzoda" kolxozi a'zolari bu yordam turidan voz kechgan, chunki ular ushbu yordamga muhtoj bo'lмаган[18; 28].

Yangi o'zlashtirilgan yerdarda tashkil qilingan barcha kolxozlarda ijtimoiy-madaniy obyektlar qurilgan va faoliyat ko'rsatgan. Masalan, Oltiariq rayonining "Beshinchi besh yillik" kolxozida davolash punkti, 4 yillik maktab va magazin bo'lgan.

Farg'ona viloyatidan olingan dala yozuvlari yuqorida faktlarni Respondentlarimizdan biri Begimqulova Mahbubaxon Mamasidiqovnaning (1950-yil 28-dekabr Farg'ona oblasti Oltiariq rayonidagi Jo'rak qishlog'ida tug'ilgan) xabar berishicha, u otasi Qosimov Mamasiddiq bilan 5 yoshligida "Beshinchi besh yillik" ("Pyataya pyatiletka") hududiga 1955-yilda ko'chib kelgan. Otasi ushbu kolxozda buxgalter yordamchisi bo'lib faoliyat olib borgan. Ular ko'chib kelganlarida "Beshinchi besh yillik" kolxozi hududi to'qay va qamishzordan iborat bo'lgan va davlat tomonidan ko'chib kelgan aholi uchun 1957-yilda 30 ta uy qurib berilgan. Uylar tuzilishiga ko'ra 1 ta xona va ayvondan iborat bo'lib, ular 2 xonali deb yuritilgan. "Beshinchi besh yillik" kolxozi raisi Jo'rak qishlog'idan bo'lганligi sababli bu hududdan 20 nafar oilani "Beshinchi besh yillik" kolxoziga ko'chirib olib kelgan[19].

Navbatdagi respondentimiz Otajonov Mirzamuxsin (1934-yil 20-mart Farg'ona oblasti Oltiariq rayonining markazida tavallud topgan) 1947-yil Farg'ona oblasti Oltiariq rayonidagi

“Leninobod” (1950-yilga qadar bu hudud “Жданов” nomli bilan kolxoz bo’lgan) sovxoziiga ko’chib kelgan. 1947-yilda uy qurilishi uchun davlat tomonidan 150 rubl ssuda berilgan va u o’zining kuchi bilan xom g’ishtdan 2 xonali uy qurban. Olingan ssudani esa 20 yil davomida to’lab borgan. Otajonov Mirzamuxsin sovxozdagi mehnat faoliyatida faqat suvchilik qilgan. Sovxoza dastlab ishlagan yillarida mehnat haqi sifatida o’n besh kunlik ish kuni uchun un va bug’doy olgan bo’lsa, qolgan o’n besh kunlik ishiga esa pul berilgan. 1961-yilda unga davlat tomonidan 14 sotixli tomorqa er berilgan va unda bodring, pomidor, turp ekkan va oilasi uchun yetarli daromad olgan[20].

Boshqa respondent Ashurov Kimsanboy 1932-yil Farg’ona oblasti Quva rayoni Qo’rg’oncha qishlog’ida tavallud topgan. 1961-yil Quva rayonidagi Guliston nomli kolxozga chorvani rivojlantirish uchun davlat tomonidan ko’chirilgan. 1962-yilda ko’chib kelgan aholi uchun davlat tomonidan 6 ta uy qurib berilgan bo’lsa, 1965-yilda esa 10 ta xonadan qurib bitkazilgan. Ushbu kolxozga aholi asosan Andijon oblastining Qorasuv hududidan, Quva rayonining Damariq, Dexqonobod va Yangichek qishloqlaridan ko’chib kelgan. Guliston nomli kolxoz asosan qoramol boqish, shuningdek cho’chqachilik va parrandachilikka ixtisoslashgan bo’lib, 1964-yilga kelib bu xo’jalikda 1500 ta cho’chqa, 2500 ta buzoq va 400 ming ta tovuq boqilgan. Ashurov Kimsanboy mehnat faoliyati davlat tomonidan munosib taqdirlangan: unga 1967-yilda mototsikl, 1976-yilda esa “Moskvich” yengil avtomashinasi sovg’a qilingan[21].

Natijalar. Yana bir respondentimiz Sobirov Mamasiddiq (1930-yil 8-sentyabr Farg’ona oblasti Kuybishev rayoni Beshkapa qishlog’ida tug’ilgan)ning ta’kidlashicha, u 1956-yilda Kuybishev rayonidagi Mehnatobod nomli kolxozga ko’chib kelgan. Ko’chib kelgan paytda bu hududdagi er juda sho’r bo’lgan. Dastlab ko’chib kelgan odamlar bu joylarda yozda ham qor yog’ar ekan deyishgan ekan. Sobirov Mamasiddiq 1956-yilda Mehnatobod kolxozidagi faoliyatini brigadir bo’lib boshlagan. U o’zi bilan birga o’zining qishlog’idan 13 ta ishchini bu hududni o’zlashtirish uchun olib kelgan. Ko’chib kelganlarida dastlab yerto’lada yashashgan. Davlat tomonidan ko’chib kelgan aholi uchun 1957-yilda 4 ta, 1960-yilda esa 15 ta uy qurib berilgan. Shuningdek ularning har biriga 20 rubldan pul berilgan, farzandlari va ishchi kuchi ko’p bo’lgan oilalar dastlabki bir martalik yordam puli sifatida 300 rubl olishgan va ushbu mablag’ ularga o’zlarining hayotlarini boshlash uchun berilgan. Keyinchalik esa mol puli ham berilgan va bu pulga xohlashsa mol olishgan yoki o’z ehtiyojlari uchun ishlatishgan. Lekin mol uchun berilgan pulni aholi yigirma yil ichida o’z ish haqidan to’lab borishgan. Har bir oilaga 30 sotixdan tomorqa eri ham berilgan va unda odamlar asosan piyoz va sholi, keyinchalik esa makkajo’xori ekishgan. Ko’chib kelgan aholining deyarli aksariyat qismi o’zi kelgan kolxozlariga qaytib ketib qolgan. 1957-yilda aholi o’z kuchi va hashar yo’li bilan tug’ruqxona qurishgan. Bu hududga Kuybishev rayning Buloqboshi, Bujuy, Rishton markazidan va Namangan oblastining Haqqulobod hududidan aholi ko’chib kelgan. 1965-yilda kolxoz aholisining soni 100 nafarga etar etmas bo’lgan. Sobirov Mamasiddiq faoliyat olib borgan kolxozning 1-brigadasida 1964-yilga kelib birinchi marta 10 gektarga paxta ekilgan va plan 10 tonna qilib belgilangan. Mamasiddiq ota belgilangan planni ikki marotaba bajargan. 1964-yilga qadar kolxoz yerlarida asosan ko’pi sholi ekishgan, buning sababi ernen sho’rini yuvish bo’lgan. Mamasiddiq otaning fikriga ko’ra, ko’chib kelgan aholi dastlabki 3-4 yilda qiyinchiliklarni boshidan kechirgan xolos, keyin esa hayot birmuncha yaxshilangan[22].

Umuman olganda, Farg’ona vodiysi oblastlaridagi ko’chirish jarayoni ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan mintaqqa rivojlanishiga ta’sir ko’rsatgan. Lekin shu bilan bilan birga, ko’chirish

tadbirlari odamlarning o'zlarini tug'ilib-o'sgan va ko'nikkan joylaridan boshqa, yangi o'zlashtirilayotgan joylarga ko'chirilishi ularda ijtimoiy tushkunlik kayfiyatlarini ham keltirib chiqargan. Buning ustiga, yangi tashkil qilingan xo'jaliklarda sovet tashkilotlari tomonidan yo'l qo'yilgan kamchiliklar sababli, ya'ni ko'chirilgan odamlarning bir qismi uy-joy bilan ta'minlanmagani yoki yashash sharoitlari yomon bo'lgani oqibatida yangi joylarini tashlab o'z qishloqlariga qaytib ketgan.

Yangi kolxozlar tashkil qilish va aholini ko'chirish masalasidagi ijtimoiy muammolar yechimi, shu jumladan, ko'chirish tadbirlariga ajratilgan mablag' va uning sarf qilinishining O'zbekiston SSR bo'yicha 1958-yil 1-noyabrgacha bo'lgan holatini ko'rib chiqadigan bo'lsak, aholini ko'chirishga hammasi bo'lib 35 million rubl kredit ajratilgan edi. Amalda esa ushbu yilning 10 oyi yakuni bo'yicha 27 mln. 955 ming rubl sarf qilingan va reja ko'rsatkichi 79,9 %ga bajarilgan, sarf qilinmagan mablag' esa 7 mln. 45 ming rublni tashkil qilgan. Mazkur ko'rsatkichlar Farg'ona vodiysi oblastlari kesimida quyidagicha bo'lgan: Farg'onada rejadagi 3 mln rubldan 2 mln 430 ming rubl (81 %), Andijonda rejalshtirilgan 4 mln. 800 ming rubldan 4 mln 296 ming rubl (89,5 %), Namanganda reja bo'yicha 5 mln. 100 ming rubldan 3 mln. 622 ming rubl (71,8 %) mablag' sarflangan[23; 194].

Xulosa. Respublika hamda oblastlar rahbariyati tan olganidek, yangi o'zlashtirilgan yerlarda tashkil qilingan xo'jaliklarda aholining ayrim ijtimoiy muammolariga kam e'tibor berilgan. Masalan, ko'p xo'jaliklarda odamlar uchun muhim bo'lgan ambulatoriy, maktab, bog'cha yoki yo'l, ko'prik qurilishlariga e'tibor sust bo'lganligi sababli, ko'chib kelgan aholi ijtimoiy muammolarga duch kelgan.

Ta'kidlash joizki, yanvar-fevral oylarida ob-havo sovuq bo'lganligi sababli, aholini ko'chirishdagi asosiy jarayonlar bahor faslining boshlarida boshlangan. Ushbu davrda ko'chiriladigan aholini tanlash va ularning ro'yxatini tuzish kabi tayyorlov ishlari olib borilgan. Shuning uchun respublikada hamda ko'pgina oblastlarda ko'chirish tadbirlariga ajratilgan mablag'ning sarf qilinishi masalasida biroz oqsoqlik kuzatilgan, lekin ushbu jarayonning sentyabr-noyabr oylarida tezlashishi natijasida hukumat tomonidan ajratilgan mablag' deyarli to'liq sarflangan.

Ichki ko'chirishning tashqi, ya'ni oblastlar yoki mintaqalararo ko'chishdan farqi shunda ediki, ichki ko'chirishda aholi asosan ijtimoiy muammolarning hal bo'lmaganligi bilan bog'liq sharoitlarga ko'nikishi kerak bo'lgan. Tashqi ko'chirishda esa ko'chirilgan aholi yangi tabiiy va iqlim sharoitlariga, shuningdek yangi ijtimoiy muhitga ham ko'nikishi ma'lum bir vaqtini olgan. Ushbu muammoning ta'sirini kamaytirish uchun yangi xo'jaliklarga butun boshli brigadalarni ko'chirish ham tashkil qilingan.

Adabiyotlar/Literatura/References:

1. ЎзМА. 2347-жамғарма, 1-рўйхат, 30-иш, 194-варак.
2. ЎзМА. 2347-жамғарма, 1-рўйхат, 37-иш, 268–270- вараклар.
3. ЎзМА. 2347-жамғарма, 1-рўйхат, 37-иш, 268–270- вараклар.
4. ЎзМА. 2347-жамғарма, 1-рўйхат, 37-иш, 269- варак.
5. ЎзМА. 2347-жамғарма, 1-рўйхат, 37-иш, 271- варак.
6. ЎзМА. 2347-жамғарма, 1-рўйхат, 14-иш, 28- варак.
7. ЎзМА. 2347-жамғарма, 1-рўйхат, 37-иш, 29- варак.
8. ЎзМА. 2347-жамғарма, 1-рўйхат, 37-иш, 257- варак.
9. ЎзМА. 2347-жамғарма, 1-рўйхат, 37-иш, 259- варак.
10. ЎзМА. 2347-жамғарма, 1-рўйхат, 37-иш, 257– 258- вараклар.

11. ЎзМА. 2347-жамғарма, 1-рўйхат, 37-иш, 193- варақ.
12. ЎзМА. 2347-жамғарма, 1-рўйхат, 14-иш, 26- варақ.
13. ЎзМА. 2347-жамғарма, 1-рўйхат, 37-иш, 28- варақ.
14. ЎзМА. 2347-жамғарма, 1-рўйхат, 37-иш, 30- варақ.
15. ЎзМА. 2347-жамғарма, 1-рўйхат, 14-иш 36- варақ.
16. ЎзМА. 2347-жамғарма, 1-рўйхат, 14-иш 53- варақ.
17. ЎзМА. 2347-жамғарма, 1-рўйхат, 14-иш 28- варақ.
18. ЎзМА. 2347-жамғарма, 1-рўйхат, 14-иш 28- варақ.
19. Дала ёзувлари. Фарғона вилояти, Олтиариқ тумани, Азимобод МФЙ. 2021 йил 16-авгкст.
20. Дала ёзувлари. Фарғона вилояти Олтариқ тумани Полосон МФЙ. 2021 йил 16-авгкст.
21. Дала ёзувлари. Фарғона вилояти Қува тумани Гулистон МФЙ. 2021 йил 17-авгкст.
22. Дала ёзувлари. Фарғона вилояти Риштон тумани Мехнатобод МФЙ. 2021 йил 15-авгкст.
23. ЎзМА. 2347-жамғарма, 1-рўйхат, 45-иш, 16- варақ.

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

Nº 4 (5) – 2025

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb
muammolari” elektron jurnali 2020-yil
6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan
davlat ro’yxatiga olingan.**

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas’uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:
100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy
tumani, Kichik Beshyog’och ko’chasi,
70/10-uy. Elektron manzil:
scienceproblems.uz@gmail.com
Bog’lanish uchun telefon:
(99) 602-09-84 (telegram).